



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1944 taga oshdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi 5,4 % **ni tashkil etdi.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **2007 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyul oyida viloyat bo'yicha 2581 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 796 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63,6 % ga kamaygan hamda ularning soni 574 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1944 ta (7,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26588 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (33,4 %), Asaka (9,3%), Andijon (6,7 %) va Shahrixon (6,5 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Andijon viloyati	28099	100,0	26588	100,0
Oltinko'l	1550	5,5	1386	5,2
Andijon	1951	6,9	1780	6,7
Baliqchi	1492	5,3	1383	5,2
Bo'z	670	2,4	664	2,5
Buloqboshi	686	2,4	674	2,5
Jalaquduq	1086	3,9	1054	4,0
Izboskan	1248	4,4	1207	4,5
Ulug'nor	546	1,9	542	2,1
Qo'rg'ontepa	1561	5,6	1333	5,0
Asaka	2515	9,0	2478	9,3
Marxamat	1227	4,4	1193	4,5
Shahrixon	1977	7,0	1730	6,5
Paxtaobod	972	3,5	933	3,5
Xo'jaobod	949	3,4	936	3,5
Andijon sh.	9236	32,9	8869	33,4
Xonobod sh.	433	1,5	426	1,6


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,6%ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **25,4 %** savdoda, **20,0 %** sanoatda, **8,6 %** qurilishda, **6,9 %** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **4,7 %** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **3,8 %** tashish va saqlash, **1,9 %** axborot va aloqa, **2,2 %** sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va **26,5 %** boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyul holatiga 2581 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 44,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (699 ta), Asaka (230 ta), Oltinko'l (170 ta) va Andijon (165 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Ulug`nor (65 ta) tumanida, Honabod shahrida (70 ta), Buloqboshi (71 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi boshqa turlarda (657 ta), savdoda (542 ta), sanoatda (537 ta), qurilishda (276 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (180 ta) hamda tashish va saqlashda (144 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (45 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (89 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (112 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga.	2018 yil yanvar-iyul holatiga.
Jami:	1785	2581
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	185	180
Sanoat	544	537
Qurilish	164	275
Savdo	430	542
Tashish va saqlash	79	144
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	81	89
Axborot va aloqa	39	45
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	39	112
Boshqa turlari	224	657

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 avgust holatiga 22016 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6134 ta, oilaviy korxonalar – 538 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari – 14755 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 38 tani va boshqalar 551 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 192 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 17,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 110 tasi qo'shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 83 ta (43,2 %), Andijon tumani 16 ta (8,3 %), Shahrixon tumani 16 ta (8,3 %) va Asaka tumanlari 11 ta (5,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z tumani 1 ta (0,5 %), Ulug'nor tumani 3 ta (1,6 %), va Paxtaobod tumani 4 ta (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 142 ta (74,0 %) va savdoda 16 ta (8,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,5 %), tashish va saqlashda 2 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 7 ta (3,6 %), boshqa faoliyat turlarida 8 ta (4,2 %) va qurilishda 7 ta (3,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta (4,7 %) tashkil qilgan. Shu bilan birga axborot va aloqa faoliyat turlarida esa tashkil qilinmagan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 22 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan yoki 1,6 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston Respublikasi - 1 ta va Hindiston Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bild-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyul holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 10 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta, savdoda 4 ta, tashish va saqlashda 2 ta hamda boshqa turlarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 21885 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 5,2 % ga pasaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7831 tasi (35,8 %) Andijon shahriga, 2097 tasi (9,6 %) Asaka, 1496 tasi (6,8 %) Andijon hamda 1381 tasi (6,3 foiz) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21885 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6724 tasi (30,7 %) – savdoda, 5257 tasi (24,0 %) - sanoatda, 2564 tasi (11,7 %) - boshqa faoliyat turlari, 2295 tasi (10,5 %) - qurilishda, 1791 tasi (8,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1240 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 993 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 510 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 511 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-iyul holatiga 2057 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,1 % ga ko'pdir.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (606 ta), Asaka (190 ta), Andijon (144 ta) va Oltinko'l tumanlarida (136 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (42 ta), Xonabod shahar (62 ta) hamda Buloqboshi (51 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (541 ta), sanoatda (537 ta) va qurilishda (275 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (45 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (89 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (110 ta), boshqa turlarda (137 ta), tashish va saqlashda (143 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 569 tani tashkil etib, ulardan 538 tasi yoki 94,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **11,1** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 43,3 % yoki 233 tasi sanoat, 24,3 % yoki 131 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,0 % yoki 59 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,9 % yoki 53 tasi savdo, 7,6 % yoki 41 tasi boshqa faoliyat turlar, 1,1 % yoki 6 tasi qurilish, 1,7 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**

Nashr uchun mas'ul: Z.Sidikov